

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 07/03/009

2024 yil «22» iyun



SH. Bazarov
2024 yil

“AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI
TASHKIL ETISH ASOSLARI”

O'QUV DASTURI

3,4-kurs uchun

- Bilim sohasi: 700000 – Ishlab chiqarish - texnik soha
- Ta'lim sohasi: 710000 – Muhandislik ishi
- Ta'lim yo'nalishi: 60712500 – Transport vositalari muhandisligi
(avtomobil transporti)

Qapnu-2024

Fan/modul kodi ATHXTEA 1708	O'quv yili 2024-2025 2025-2026	Semestr 6-7	ECTS- Kreditlar 4-4
Fan/modul turi Asosiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Avtomobilarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari	120	120	240

2

I. Fanning mazmuni

“Avtomobilarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” fanining mazmuni, asosiy mohiyati va maqsadi tayyorlanayotgan mutaxassisga avtomobillarda tashish va uni tashkil etish sohasida avtomobillardan yuqori darajada foydalanish, ularning atrof muhitga ta'sirini kamaytirish, harakat xavfsizligini tashkil etishni puxta egallab olishini shakllantirish, avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari fanidan bakalavriat talabalarini o'quv rejada ko'zda tutilgan keyingi maxsus fanlarni o'zlashtirishga tayyorlash hisoblanadi. Fanning asosiy maqsadi tayyorlanayotgan keng qamrovli mutaxassisga transport vositalari xizmatidan samarali foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlar berish, unda fanga, o'z kasbiga qiziqishni orttirish, avtomobillarda yuk va yo'lovchilarni tashish hamda harakat xavfsizligini tashkil etish jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalaridan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarda yuk va yo'lovchi tashishda avtomobil transportlardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish, avtomobil transport bo'yicha xizmat ko'rsatish sifati va uning raqobatbardoshligini iqtisodiy baxolash hamda harakat xavfsizligini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni xosil qilish. -talabalarga avtomobil transportidan foydalangan halda yuk va yo'lovchilarni optimal tashish yo'l yuruqlarini o'rgatish, yuklarning turlariga, masofasiga, etkazib birish holatiga qarab transport vositalarini tanlash sohalarni o'rgatish.

-talabalarga avtomobil transportlarda yuk va yo'lovchi tashishda eng kam xarajatli transport turini tanlash, xalqaro yunalishlarda tashish, tez bo'zuluvchi yuklarni tashishda harakat xavfsizligini tashkil etish, terminallarda yuklarni saqlash va jo'natish, avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashishda harakat xavfsizligini tashkil etish bo'yicha asosiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni xosil qilishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qisim (ma'ruza mashg'ulotlari).

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. **Kirish. Transport jarayoni.** “Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” fanining maqsad va vazifalari. Transport jarayoni haqida umumiy tushuncha, transportni moddiy nematlar ishlab chiqarishdagi o'rni, transport jarayoni asosiy elementlari, avtomobil transportining tashish qobiliyati.

2. **Mavzu. Avtomobil transporti vositalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.**

Avtomobil transporti vositalari, avtomobillar o'lchami va massa ko'rsatkichlarining mumkin bo'lgan chegaralari, transport vositalariga qo'yiladigan asosiy ekspluatatsion talablar, Ixtisoslashgan transport vositalari.

3. **Mavzu. Avtomobil transporti vositalarining ish sharoitlari**

Transport vositalari tasnifi. Avtomobillar o'lchami va massa ko'rsatkichlarining chegaraviy o'lchamlari kabi mavzular o'rganiladi. Shuningdek, avtomobil yo'llarining tasnifi, shahar ichi aloqa yo'llarining tasnifi, avtobuslar to'xtash joylari, avtomobil yo'llariga qoyiladigan talablar va ayni talablarga rioya qilishga oid chora-tadbirlar kabi bilimlar tushuntiriladi.

4. **Mavzu. Avtomobil transportida yuk tashish asoslari**

Avtomobil transportida yuk tashishni tashkil etish asoslari, yuk tushunchasi, yukning xususiyatlari bo'yicha tasniflanishi, tara va uning xizmati, ularga qoyiladigan talablar, konteyner va tagliklar, ularning turlari. Yuklarni tashish. Yuklarni xosil qiluvchi va qabul qiluvchi punkt (joy)lar. Yuk xajmi va oboroti. Yuk oqimi va uning epyurasi, chizmasi. Mikrohududlarning xosil bo'lishi kabi mavzular o'rganiladi.

5. **Mavzu. Tashishni tashkil etishning asosiy elementlari**

Avtomobillarda yo'lovchilar tashish ta'rif va tasnifi, avtomobillarda yuk tashish tasnifi, tashishni tashkil etish tamoiillari, yuklarni o'z vaqtida, tulik miqdorda va sifatini kamaytirmay yetkazib berish, tashish jarayonida ekspeditorlik ishlari, ba'zi bir tabiiy xususiyatlariga ko'ra yuklar vaznining kamayishiga oid mavzular o'rganiladi.

6. **Mavzu. Avtomobil transporti asosiy ish ko'rsatkichlari**

Avtomobil transportining asosiy ish ko'rsatkichlari haqida umumiy tushunchalar, avtomobil saroyi va undan foydalanish, avtomobil saroyining tarkibi va quvvati, avtomobillardan yuk va yo'lovchilarni tashishda foydalanish ko'rsatkichlari, transport vositalari ish rejimi va xarakat tezliklari kabi mavzular o'rganiladi.

7. **Mavzu Transport vositalarini ish unumi**

Transport vositalari ish unumi va unga ta'sir etuvchi asosiy texnik-ekspluatatsion

omillar: transport vositalari yuk kutarish (yo'lovchilar sig'ira olish) qobiliyati va undan foydalanish: o'rtacha yukli qatnov masofasi: bosib utilgan yo'ldan samarali foydalanish koeffitsiyenti: texnik, alokaviy, ekspluatatsion tezliklar: ortish-tushirish (chiqish-tushish) vaqtlari: transport vositalarining ishda bo'lish rejimi. Transport vositalari ish unumiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqligi, aniq sharoitda ishlovchi transport vositasi ish unumini ifodalovchi chizma (grafik) kabi tushunchalarga oid mavzular o'rgatiladi.

8.Mavzu. Yuk avtomobil transporti vositalarini tanlash va hisoblash

Yuk avtomobillarini tanlash, ulardan foydalanish, yuk tashish usullari, avtopoyezdlardan foydalanish, transport vositalari hisobi va ulardan foydalanish dasturiga oid bilimlar o'rgatiladi.

9.Mavzu. Marshrutda ishlovchi transport vositalari ish hisobi

Bir tomonlama yukli va ikki tomonlama yukli qatnovchi mayatnikli marshrut ish hisobi. Orqa yunalishda qisman yukli qatnovchi marshrut, xalqasimon marshrut ish hisobi. Bir guruh marshrutda yuk tashuvchi transport vositalari ish hisobi va ularning o'rtacha ish ko'rsatkichlarini aniqlash kabi mavzular o'rganiladi.

10.Mavzu. Yuk tashishni tashkil etish tizimlari

Bir turli xajmi katta yuklarni tashish, kam miqdorli yuklarni tashish. Markazlashtirilgan yuk tashish tizimi va uning tashkiliy shakllari. Tarasiz tashish, konteyner va tagliklarda yuk tashishni tashkil etish, konteynerlar maydoni va almashirish punktlari kabi mavzulardan iborat.

11.Mavzu. Yuk avtomobili xarakatini tashkil etish

Avtomobil transportida vositasi xarakatini tashkil etish tamoillari, limiyada tashishni tashkil etishga asosiy talablar, yo'l xarakati zichligi, xarakatni tashkil etish va uning chizmasi. Liniya ishi chizmalari, xaydovchilar ish rejimlari.

12.Mavzu. Yuk tashishda ortish-tushurish ishlarini tashkil etish va mexanizatsiyalash
Ortish-tushurish ishlari tavsifi, transport vositalarining ortish-tushurishda bekor turish vaqtlarini meyorlash, ortish-tushurish punktlari va ular o'tkazuvchanligi, ortish-tushurish mashina va mexanizmlari unumi uyulib tashiluvchi yuklarni ortish-tushurish ishlarini tashkil etish va ularni mexanizatsiyalash. Og'ir vaznli yuklarni ortish-tushurish uchun stasionar va ko'chma kranlar.

13.Mavzu. Yo'lovchilar tashish asosiy elementlari

Yo'lovchilar tashish avtomobil transporti, avtobus saroylarining mulkchilik shakllari, marshrutlar tizimi va xaydovchilar mexnatini tashkil etish, yo'lovchilar oqimi va oboroti. Shaharlardagi avtobus ishlarining asosiy elementlari, shahardan tashkarida va shahar atrofi yo'lovchilarini tashish. Shaharlararo va xalqaro yo'lovchilarni tashish: yengil avtomobillarda yo'lovchilarni tashish, taksi avtomobillarda yo'lovchilarni tashish, uni tashkil etish, korxonalar, tashkilot va idoralarga yengil avtomobil bilan xizmat etishni tashkil etish.

14.Mavzu. Avtomobil transportida dunyo suv havzalariga chiqishda O'zbekiston transport yo'laklari. O'zbekistondan o'tadigan transport yo'laklari, xalqaro avtomobil yulkarni tashish tashkilotlari, evropa hamjamiyatining transport komissiyasi, yuklarni xalqaro tashishdagi asosiy atamalar, unimodal tashish, multimodal tashish, intermodal tashishlar, xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashishning huquqiy asoslari.

15.Mavzu. Harakat xavfsizligini tashkil etishning maqsadi va vazifalari.

Avtomobillashirish, uning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi avtomobillashirish va yo'l tarmoqlarini o'sish ko'rsatkichlari. Yo'l harakatini tashkil etish to'g'risidagi asosiy tushunchalar «Avtomobil-haydovchi-yo'l-atrof-muhit» tizimining o'zaro bog'liqligi. Yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va xalqaro meyoriy hujjatlar.

16.Mavzu. Yo'l harakatining asosiy tavsiflari

Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar. Transport oqimi jadalligi va tartibi, ularning yo'nalishlari, yil, oylar davomida va kunning soatlari mobaynida o'zgarishi. Transport oqimining yo'l sharoitiga, jadalligiga nisbatan transport vositalarining tezligini o'zgarishi. Transport oqimining zichligi, o'tkazish qobiliyati va yuklanganlik koeffitsiyenti ko'rsatkichlarini o'zgarishi.

17.Mavzu. Yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari

YTH ni tahlil qilishning asosiy vazifalari. YTH to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ish tizimi. YTH ni vujudga kelishda yo'l sharoitining roli. YTH ni vujudga kelishda transport vositalarini texnik holatini ta'siri. YTH vujudga kelishda haydovchilarning o'rni. Avtotransport ishlab chiqarish va yo'l tashkilotlarida YTH ni hisobga olish. YTH ni yig'ish va tahlil qilishda EHM ning o'rni. YTH natijasida vujudga keluvchi zararni baholash.

18.Mavzu. Yo'l sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning harakat xavfsizligiga ta'siri

Avtomobil yo'llarini mavsumiy tekshirish va kundalik nazorat qilishni tashkil etish. Yo'lining geometrik parametrlari, holati va jihazlanganlik to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish. Yo'lni tekshirishda harakatlanuvchi laboratoriyalardan foydalanish. Harakatlanish uchun xavfli yo'l bo'laklarini aniqlash usullari. Xavfsizlik koeffitsiyenti. Halokatlik koeffitsiyenti. Harakatlanish uchun xavfli bo'laklarni aniqlashda statistik va ziddiyatlik vaziyat usuli. Yo'l elementlarining faol, passiv, halokatdan keyingi va ekologik xavfsizligi.

19.Mavzu. Xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda transport vositalari texnik holatining ahamiyati

Avtomobillarning konstruksiyasini Harakatlanish xavfsizligini ta'minlashdagi roli. Konstruktiv xavfsizlikga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Transport vositalarini

konstruktiv xavfsizlik turlari. Avtomobilni faol xavfsizligi. Avtomobilni sust xavfsizligi uni baholash. Avariyadan keyingi va ekologik xavfsizlik.

20. Mavzu. Yo'l belgi chiziqlarining guruxlari, ularning ko'cha-yo'l sharoitida qo'llanilishi. Yo'l belgi chiziqlarning vazifalari, yo'l belgi chiziqlarning guruhlari va turlari, yotiq chiziqlarning turlanishi, bo'yлама yotiq chiziqlar, ko'ndalang yotiq chiziqlar, sariq rangli yotiq chiziqlar, oq rangli yotiq chiziqlar.

21. Mavzu. Haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni

Haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni. Haydovchini xarakterlovchi ko'rsatkichlar. Haydovchini ruhiy holati va uning biologik imkoniyatlari. Haydovchi mehnatini tashkil etish. Haydovchilik kasbiga munosiblikni aniqlash. Harakatlanish xavfsizligi va alkogol.

22. Mavzu. Harakatni boshqarishning texnik vositalari

Yo'l belgilari. Yo'l belgilarini o'rnatishda qo'yiladigan umumiy talablar. Yo'l belgilari turlari. Yo'l belgi chiziqlari va ishoralari. Yo'l belgi chiziqlarini tushirishga qo'yiladigan umumiy talablar. Gorizontal va vertikal belgi chiziqlarini ishlatish qoidalari va harakatni tashkil qilish. Yo'l to'siqlari va ularni qo'llash sharoitlari. Yo'naltiruvchi qurilmalar. Harakatni tashkil qilishda svetoforlardan foydalanish. Svetofor obektini hisoblashda ishlatiladigan asosiy tushunchalar. Svetofor turlari. Geoxobort tizimlari to'g'risida tushuncha.

23. Mavzu. Yo'l harakatini tashkil etishning ustubiy asoslari va amaliy tadbirlari

Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy ustubiy yo'nalishlari. Yo'l harakatini operativ tashkil etish va ularga kerakli ma'lumotlar to'plash. Transport oqimi tarkibini tekislash. Transport oqimini yo'nalishi, tarkibi va tezligi bo'yicha ajratish. Xavfsiz harakatlanishni tashkil etishda qo'shimcha polosalar belgilash usuli. Chorrhalarda harakatni tartibga solishni amaliy tadbirlari. Rejadagi kichik radiusli egrilarda xavfsiz harakatni tashkil etishning amaliy tadbirlari. Aholi punktlarida piyodalarning harakatini tashkil etish.

24. Mavzu. O'zbekiston Respublikasi IIB YHXBB asosiy vazifasi

Yo'l transport hodisalarini hisobga olish, tahlil qilish, surishtirish ishlarini tashkil etish, transport vositalarini ruyxatga olishni tashkil etish. Yo'l patrul xizmatining asosiy vazifalari.

25. Mavzu. Avtotransport korxonalarining boshqaruv tizimi va ularning o'zaro bog'liqligi. Haydovchilarni tayorlash, qayta tayorlashni amalga oshirish.

Avtotransport korxonalarining boshqaruv tizimi va ularning o'zaro bog'liqligi. ATKlari xizmat bo'limlari; ATK xizmatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik; ATKlarda xizmatni tashkil etish bo'yicha nizomlar, ATKlarning harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatini rejalashtirish. Avtotransport korxonalari texnika xizmatining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari. Avtotransport korxonalarining

xodimlar bo'limining harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyati.

26. Mavzu. Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlash.

Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlovchi yo'l tashkilotlari. Yo'l qurilish tashkilotlarining vazifalari; loyihalash ishtirokchilarining vazifalari. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va tuzatish xizmatining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari (yo'l-patrul xizmati). Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish xizmati.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (Amaliy mashg'ulot), (Laboratoriya mashg'ulot), (Mustaqil ta'lin).

Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Transport vositalari ekspluatatsion xususiyatlari.
2. Avtotransport vositasi ish unumi va ish unumiga texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlar ta'siri.
3. Avtomobillarda shaharlararo tashish.
4. Passajirlar oqimini kuzatish va uni taxlil qilish.
5. Marsrutda ishlovchi avtobuslar sonini va xarakat intervalini aniqlash.
6. YTHni hisobga olishning birlamchi hujjatlarini tuzish va tahlil qilish.
7. Haydovchining diqqatini tadqiq qilish.
8. Texnik ko'rik hujjatlarini to'ldirish va diagnostika markazi bilan tanishish.
9. Transport vositalarini tormoz tizimini ko'rikdan o'tkazish.
10. Transport vositalarining ekologik xavfsizligini aniqlash.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishadilar, tarqatma materiallardan foydalanish, masalalar echish, mavzular bo'yicha kurgazmali qo'rollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Yuk tashish marshrutlarini tuzish.
2. Avtotransport vositasini tanlash.
3. Avtotransport saroyining yil-lik ishlab chiqarish dasturini hisoblash.
4. Avtotransport vositalarining marshrutlardagi ish ko'rsatkichlarini hisoblash.
5. Avtotransport vositasi xarakat grafigini tuzish.
6. Transport vositalarining harakat miqdori va tarkibini aniqlash
7. Transport vositalarining oniy tezligini mavjud ko'cha sharoitida aniqlash va tahlil qilish.
8. Piyodalar harakat oqimini aniqlash va tahlil qilish.

9. Yo'l va ko'cha sharoitlarida o'rnatilgan texnik vositalarini o'rganish (Yo'l ni texnik ko'rikdan o'tkazish).

"Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlangan maxsus auditoriyalardan foydalaniladi, laboratoriya xonalari hamda yetakchi avtotransport korxonalarida o'tkaziladi. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar mavjudligi, unda ishning maqsadi, mazmuni, bajarish tartibi keltirilgan bo'lishi kerak.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

1. Mavzular bo'yicha konspekt (referat, taqdimot) tayyorlash. Nazariy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vaqtni tejaydi;

2. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, innovatsion dars loyihasi namunalari, o'z-o'zini nazorat uchun test topshiriqlari va boshqalar;

3. Fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular bo'yicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish rag'batlantiriladi;

4. INTERNET tarmoqlaridan foydalanish. Fan mavzularini o'zlashtirish, mavzu bo'yicha INTERNET manbalarini topish, ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlantiriladi.

* darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari mavzularini o'rganish;

* tarqatma materiallar bo'yicha ma ruzalar qismini o'zlashtirish;

* maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

* yangi texnikalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;

* faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

* masofaviy (distatsion) ta'lim;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O'zbekiston sharoitida avtomobil transportining revojlantirishi.

2. Avtomobillarga bo'layotgan talablar.

3. Avtomobil transportida yuk tashish jarayonlari.

4. Avtomobil transportida harakat xavfsizligini ta'minlash.

5. Harakat xavfsizligini ta'minlashda "Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit" tizimining ahamiyati.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Ta'lim natijalari. Kasbiy kompetentsiyalar

Talaba bilishi kerak:

Talaba Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari fanida transport vositalari muhandisligi fanlarining qonun va qoidalarini, injenerlik amaliyotida juda ko'p qo'llanishi mumkin bo'lgan masalalari qoidalari haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi; (bilim)**

Talaba laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazoratini biladi.

Talaba mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajaradi. (test, referat va boshqa usullarda).

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. B.A.Xodjaev. "Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari". Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti -2002, 239 bet.
2. B.A.Xужаев. Автомобильные перевозки. Т. "Узбекистон", 1991й
3. И.В.Спирин. Организация и управление пассажирскими автомобилями перевозками. М. "Академия" 2010г
4. V. Ismoilov, B. Tursunboev, M. Kalonov "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari" T "Mashhur press" 2017y, 574b
5. Q. X. Azizov "Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" T, "Fan va texnologiyalar" - 2009 y., 244 b.
6. Q. X. Azizov "Yo'l harakati qoidalari" T, Yozuvchi - 2016 y., 77 b.
7. В. И. Конопленко и др. "Организация и безопасность дорожного движения" Учеб для вузов. М. "Выш.шк" 2007-383стр.
8. Кремерец Ю.А. Печерский М.П. Афанасьев М.Б. "Технические средства

организации дорожного движения” Учебник для вузов-М. ИКЦ “Академкнига”, 2005г. 279стр.

9.A.E.Yusupov “Avtomobillarda tashishni tashkil etish” Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2024. –176 bet.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1.SH. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekistan davlatini birgalikda bargo etamiz. - T.: O‘zbekiston, 2016.

2.O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi”to‘g‘risidagi Farmoni (“Xalq so‘zi”, gazetasi, 2017 yil, 8 fevral)

3.SH. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017.

4.V.M.Беляев. Организация автомобильных перевозок и безопасность движения. МАДИ. 2014.

5.M.E.Майборода, В.В.Бернарский. Грузовые автомобильные перевозки. Ростов-На Дону, “Феникс”, 2008.

6.“Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma, TAI, 2014 y.

7.Azizov K-X. yo‘l xarakatini tashkil etish asoslari. T.: «YOZuvchi», 2002-182b.

8.«Xarakat xavfsizligini tashkil etish asoslari» fanidan «Transport vositalarini ishlatish va ta‘mirlash» bakalavr yunalishi buyicha laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy kursatma, Toshkent 2004, 18 b.

9.SHNK 2.07.01-03 SHaxar va kishlok axoli punktlari xududlarini rivojlantirish va kurilishini rejalashtirish. Uzbekiston Respublikasi Davlat arxetiktura va kurilish kumitasi T.: 2003, 84 b.

10.Azizov K.X. «Yo‘llarda xavfsiz xarakatlanish asoslari”. O‘quv qo‘llanma/T., “

11.V.Ismoilov, B.Tursunboev, M.Kalonov “Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslari” T”Mashhur press” 2017y, 574b

12.A.Yusupov, V.Jovliev “Avtomobilarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish fsozlari” Qarshi 2021y.

13.Ю.И.Куликов. “Автомобильный транспорт в транспортной системе России”. Хабаровск, Изд-во ТОГУ, 2007 г.

14.Л.Б.Миротин М- Обслуживание потребителей Учебник. Инфра 2002г. 186

Qo‘shimcha axborot manbalari (internet saytlar, davriy nashrlar):

1. www.ziyounet.uz – ta‘lim portali
2. www.natlib.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
3. www.AutoCAD.ru – AutoCAD davriy elektron nashri
4. www.cadmater.ru – CAD master davriy elektron jurnali
5. www.hardline.ru – kompyuter hujjatlari
6. www.ziyouz.com – elektron kutubxona

7 Fan ishchi o‘quv-rejasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 06.08.2022 yildagi 12-sonli qarori bilan tasdiqlangan malaka talablariga muvofiq ishlab shiqli.

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institut Uslubiy Kengashida muhokama etilgan (2024-yil “ ” dagi №“ ”-sonli bayonnoma) va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

Fan/moduli uchun mas‘ul

Tuzuvchi: Yusupov A.E. - QarMII “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi dotsenti

9 Taqrizchilar: Azevov Sh.A. - QarMII “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi dotsenti v.b.

Razzaqov T - QarMII “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis” kafedrasi dotsenti